



THE PROCESS OF LITERARY AND HISTORICAL FORMATION OF DIVAN AND DIVAN TRADITIONS

Sohiba Umarova

Associate Professor, PhD

Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695478>

ARTICLE INFO

Received: 13th June 2025

Accepted: 18th June 2025

Online: 19th June 2025

KEYWORDS

Tradition, divan,
divanism, alphabetical
order, ode, ghazal, rubai,
fard.

ABSTRACT

This article discusses the genesis of the term divan and the process of literary and historical formation of divan traditions. Divans were organized with the collection of lyrical works of poets, and Turkish divanism developed under the influence of Arabic and Persian literature and developed its own textual and ideological requirements.

DEVON VA DEVONCHILIK AN'ANALARINING ADABIY-TARIXIY SHAKLLANISH JARAYONI

Sohiba Umarova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695478>

ARTICLE INFO

Received: 13th June 2025

Accepted: 18th June 2025

Online: 19th June 2025

KEYWORDS

An'ana, devon,
devonchilik, alifbo tartibi,
qasida, g'azal, ruboiy,
fard.

ABSTRACT

Ushbu maqolada devon atamasining kelib chiqish genezisi va devonchilik an'alarining adabiy-tarixiy shakllanish jarayoni haqida so'z yuritiladi. Shoirlar lirik asarlarining jamlanishi bilan devonlarga tartib berilgan, turkiy devonchilik arab, fors adabiyoti ta'sirida rivojlanib borib, o'zining matniy va g'oyaviy talablarini ishlab chiqishga erishdi.

ПРОЦЕСС ЛИТЕРАТУРНО-ИСТОРИЧЕСКОГО ФОРМИРОВАНИЯ ДИВАНА И ТРАДИЦИЙ ДИВАНА

Сохиба Умарова

Доцент, Доктор философии по филологии

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695478>

ARTICLE INFO

Received: 13th June 2025

Accepted: 18th June 2025

Online: 19th June 2025

KEYWORDS

Традиция, диван,
диванизм, алфавитный

ABSTRACT

В статье рассматривается генезис термина диван и процесс литературно-исторического формирования традиций дивана. Диваны были организованы с помощью сбора лирических произведений поэтов, а турецкий диванизм развивался под влиянием арабской и персидской литературы и выработал свои собственные текстовые и



порядок, ода, газель, идеологические требования.
рубай, фард.

Kirish

Adabiyotshunoslikda har bir adabiy istilohning genezisi turlicha kechishi muayyan atamaning qaysi tilga mansubligi va tarixiy-tadrijiy omillariga borib taqaladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "devon" so'ziga quyidagicha sharh berilgan: "**Devon I** [f. ديوان – she'rlar to'plami] Muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she'rlarining (dostonlardan tashqari) to'liq to'plami. **Devon II** [f. ديوان – davlat idorasi; sud mahkamasi] tar.1.O'tmishda Sharq musulmon mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyo xonliklarida amal qilgan oliy davlat amaldorlarining majlisi. **Devon qurmoq**. Oliy davlat amaldorlari majlisini o'tkazmoq. Davlatning bosh idorasi va ayrim vazirliklarning mahkamalari; shunday mahkama binosi. Devonda ishlovchi ba'zi mansabdorlarning unvoni. **Mirzoyi devon**. Davlat oliy mahkamasini idora etuvchi amaldor, bosh mirzo. **Devon III** [f. ديوان – gilam to'shalgan supa] Divan."¹.

"Adabiyotshunoslik lug'ati"da "Devon" - arabcha so'z bo'lib, ya'ni "yozish, ro'yxatga olish, to'plam" degan ma'nolari bildirishi ko'rsatiladi². "Devon" so'zining qaysi tildan olingani va ma'nolarini yanada aniqroq bilish maqsadida bir nechta forscha, arabcha lug'atlarga murojaat etamiz.

Assoiy qism

"Farhangi Mu'yn"da bu so'zga shu tarzda izoh beriladi:

1- وزارت خانه (در قدیم). 2- اداره [بوشتن]، dipi، dap مربوط به آسوری - [dêvân] * ایران دیوان دیوان - (در قدیم). 3- دفتر خانه. 4- دفتر محاسبه، دفتر حساب، دفتر عمومی برای ثبت در آمد و هزینه. 5- خزانه داری. 6- دولت.

3

Tarjimasi: "Devon - divon eroniy; devon - qadimgi ossuriy tilidagi "dap", dipi – yozmoq deganidir. 1. Vazirlik (qadimda). 2. Idora. (qadimda). 3. Ofis-boshqarma. 4. Hisob-kitob bo'limi. Daromad va hazinani kiritib borish uchun mo'ljalangan umumiy daftar (kanselyariya daftari). 5. G'azna. 6. Davlat".

E'tiborlisi, ushbu Muhammad Mu'yn lug'atida "devon" so'zi aslida eroniy so'z bo'lsa ham, kelib chiqishi qadimgi Ossuriy tilidagi "dap" yoki "dipi" so'ziga bog'liqligi aytilmoqda. Bundan tashqari Mu'yn lug'atida devon so'zining yana *devoni insho* (mo'g'ullardan oldingi davrda shoh tomonidan rasmiy hujjatlar, idora va davlatlararo yozishmalarni boshqarib turiladigan joy), *devoni istifo*, *devoni muhosibot*, *devoni mazolim* singari qo'llanishlarini o'zbek tilidagi "Prezident devonxonasi" birikmasi bilan izohlash mumkin bo'ladi.

Hasan Amidning "Farhangi Amid"da "devon" so'zi va uning ma'nolari quyidagicha sharhlangan: .

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2006. – Б.587.

² Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: "Академнашр", 2010. – Б.88.

³ معین محمد، فرهنگ معین (فارسی). تهران: زرین: نگارستان کتاب، 2004/1382. 1280-ص



Tarjimasi: *Devon – pahlaviycha: Divan. Xalq arzxonasi, adolatxonasi, kanselyariya-devonxona, hisob-kitob daftari(buxgalteriya), moliya daftari. alifalar va ulardan keyingi eronlik podshohlar davrida qo'llangan. Shuningdek, biror shoirning she'rlari chop etilgan she'r daftari yoki kitobi. Arabchada ham devon shaklida qo'llanadi va ko'pligi "davovin yoki dayovin. Umar (r.a) eroniylar uslubida devon tashkil etgan birinchi shaxs hisoblanadi. U baytul-mol, ya'ni g'aznaning hisob-kitobi uchun, kirdi-chiqdi hamda qarz olgan kishilarni belgilab qo'yish niyatida boshqarma tuzgan. Bani Umayya hukmronligi davrida esa asta-sekinlik bilan boshqa devonlarga ham asos solindi. Jumladan, jand devoni, xiroj devoni, maktublar devoni, mazlumlari devoni va boshqalar. Bundan tashqari boshqa devonlarning ustidan nazorat qiluvchi "Oliy Devon" ta'sis etilgan va uning raisini "Sohibi Devon" deyishgan. Hozir ham Eronning davlat tuzumida Mamlakat devoni va Moliya devoni o'z faoliyatini olib bormoqda⁴.*

Muhammad bin Muharram ibn Manzurning besh jildlik "Lison ul- arab" nomli izohli lug'atida devon shunday sharhlangan:

Tarjimasi: *"Devon" – so'zi sahifalarning jamlanmasi degan ma'noni anglatib, devon deb varaqlarni yig'ib bir butun holiga keltirishga aytilgan. Abu Ubayda aytadiki, "devon" so'zi fors tilidan arab tiliga kirib kelgan. Im miskiy esa "devon so'zi faqat kasra bilan keladi, "ad divana". Kiso esa fatha bilan aytilsa ham bo'ladi, lug'ati mualla, ya'ni keyinchalik paydo bo'lgan shakl. Yana shunday fikrlar aytiladiki, "devon" so'zidagi "vov" arab tili qoidalariga bo'ysunmayapti, ya'ni "yoy" bilan "vov" bir-biriga kirishtirilib ketishi kerak edi. Bu so'z "diyvan" bo'lishi kerak edi. Yoyi tashdid bilan o'qilishi kerak edi"⁵.*

Bundan tashqari "devon"ning "divan" shakli qadimgi Hindiston, Eron podshohlarining taxti asosan hozirda uy jihozlaridan "divan"ga o'xshagan uzun shaklda bo'lgani, ya'ni, saroyda xalq dodini so'ragan podshohlar o'tirgan taxt ham "divan" deyilishi bilan bog'lanadi.

Keltirilgan bir nechta lug'atlardan ma'lum bo'ladiki, "devon" so'zi suryoniy "dap", "dapi" ya'ni yozmoq degani, fors tiliga o'zlashib, bu so'zning ma'nosi kengaygan. Devon davlatda olib boriladigan iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni qayd etadigan daftar bo'lgan, keyinchalik davlat idoralari ham devon deb yuritilgan. Shoirlarning she'rlari jamlanib, tartib berilishi, ya'ni she'riy to'plam holiga keltirilishi aynan davlat yoki hukmdor nazoratida bo'lgan va shuning uchun ham bunday she'riy to'plamlarga "devon" deyilgan.

Alisher Navoiy nazmning sharafiligi haqida gapirarkan, shunday yozadi: "Va Amir ulmo'minin Ali karramallohu vajhahuning ash'ori ko'pdur, balki devoni bor. Yana mashoyix va aimma va avliyullohdin ham ko'p azim ush-sha'n elning nazmi, balki devoni va masnaviy tariqi bila kitoblari borkim, istishhodg'a hojat emas, nechunkim, xaloyiq qoshida ravshandurur va ham so'z tatvil topar. Va bu nazmlarning asli va zobitasi aruz buhur va avzonig'a mavqufdur"⁶. Hazrati Ali r.a. tomonidan devon tartib berilgan. Xususan, Ozarbayjon FA Respublika qo'lyozmalar fondi tomonidan tayyorlangan "Qo'lyozmalar katalogi"da "Adabiyot" qismi aynan Sharq adabiyotidagi eng qadimgi devonlar tavsifi bilan beriladi.

Bugungi kunda Bokuda FA Respublika qo'lyozmalar fondida 3882 /IV, 2534, 3545

⁴ فرهنگ عمید. شامل واژه های فارسی و لغات عربی مصطلح در زبان فارسی. تألیف حسن عمید. تهران: موسسه انتشارات امیر کبیر. 1996 /1375. ص. 1178.

⁵ لسان العرب للامام العلامة ابی الفضل جمال الدین محمد بن مکرم ابن منظور الإفريقي المصری. المجلد الثالث عشر. نشر آدب الحوزه. قم – ایران. 1405 هـ. 1363 ش. ص. 166.

⁶ Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Т.: "Фан", 2000. – Б. 31.



inventar raqamli qo'lyozmalar Hazrat Ali k.v. va uning davomchilaridan Imom Sajjodlarning arab tilidagi devonlari saqlanmoqda.

Sharq adabiyotida muayyan bir shoirning lirik she'rlar majmuasi va unda she'rlar qofiya yoki radifning tugallangan harflari asosida alifbo tartibida ko'chirilishi "Devon" deb nomlash, taxminan, X-XI asrlardan keng tus olgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, birinchi devon tartib bergan shoir Hanzalai Bog'disiy (vaft 839)dir. Hanzalai Bog'disiy Xurosonlik, ya'ni hozirgi Afg'onistonning Bodg'is hududida Tohiriylar sulolasi davrida yashagan va h.q. 219 (mil 834) yilda vafot etgan. Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Chahor maqola" asarida Ahmad bin Abdullo Xujastoniylar tilidan uning she'riy devoni borligini aytadi. Uning devonidan faqat besh baytlik g'azal va ikki baytlik qit'asi hamda fardi yetib kelgani qayd etiladi: "Bir kuni Ahmad bin Abdullo Xujastoniydin so'rashadi: Sen Xuroson amirligidagi yuksak maqomga ega shaxslardan eding, shu davr haqida nima deysan? Shunda u javob berib, bir kuni Hanzala Bodg'isiyning devonidan "davlat bu xuddi sherning og'zi kabidir, yo undan qochib qutulasan, yoki uning yonida ulug' darajalarga erishasan", mazmunidagi she'rni o'qiganini aytadi. So'ngra esa o'zi ham bor-budini sotib, Xurosondan qochib qolganini eslaydi. Avfiy Buxoriy ham undan ikki baytlik she'r qolganini eslatadi⁷.

Ammo ba'zi tadqiqotchilar bu fikrni rad etgan holda, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"siga tayanib, ya'ni asarda Ajam shoirlari tazkirasida Rudakiy shoirlarning ustodi sifatida shunday deyiladi: "...somoniylar zamonidagina forsiy she'r rivoj topdi va ustod Ro'dakiy bu ilmda shuaroning saromadi edi. Undan muqallam sohib devon shoirni eshitmadik. Bas, vojibdirkim, (zikrni) ustod Rudakiydan boshlasak..."⁸. Shunga asosan, devon tartib berilishini Rudakiyga bog'laydi va Movarounnahrda Rudakiy Abu Abdulloh Ja'far binni Muhammad binni Hakim binni Abudurahmon binni Odam fors tilidagi g'azal, ruboiy, qasida, madhiya, marsiya, pandu hikmat, hasbi hol, mazammat, hajv hamda chistonlarini jamlab, ilk devon tartib bergan shoir deyiladi.

Bizningcha, Rudakiyning fors-tojik she'riyatida ilk devon sohibi deb berish o'rinli. Birinchidan, uning devoni saqlanib qolgan, ikkinchidan aynan Somoniylar davrida devonchilikka e'tibor qaratilgan. Manuchehr Domg'oniy o'zining baytida yozadi:

Az hakimoni Xuroson ku Shahidu Balxiy,

Bu Shukuru Balxiyu va Abul Fath Bastiy.

Bu baytdan ham aynan Somoniylar davrida she'r va she'riyatga e'tibor berilgani ko'rinadi. Biroq ularning orasida Rudakiygina saroyda bo'lgani sabab devon tartib bera olgan shoir hisoblanadi⁹.

Dastlab turkiy xalqlar adabiyoti tarixida devon tartib berish arab adabiyoti ta'sirida vujudga kelgan. A.Ataev VIII-XIII asrlarda Xorazmda yaratilgan arab tilidagi adabiy manbalar xususida so'z yuritarkan, shunday fikr yuritadi: "Xorazmda adabiyot va san'atning rivojida davr hukmdorlari yetakchi rol o'ynadi, hukmdorlarning shaxsan o'zlari badiiy ijod bilan shug'ullanishi, saroydagi mavqeyini mustahkamlashda, xalq ye'tiborini qozonishda badiiy so'zning kuchidan asosiy vosita sifatida foydalanishi, shunga ko'ra saroyda ijodiy muhit

⁷ تاريخ ادبيات در ايران (جلد اول). دكتور ذبيح الله صفا. تهران: انتشارات فردوس. 1993/1371. 179-180 ص.

⁸ Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. ("Тазкират уш-шуаро"дан). – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.20.

⁹ تاريخ ادبيات در ايران. تاليف دكتور ذبيح الله صفا تهران: انتشارات فردوس. جلد اول. 1992/1371. 303 ص.



yaratilishi, iqtidorli odamlarning saroyga jalb yetilishi asosiy omil bo'ldi. Mashhur hokimlardan Ma'mun ibn Muhammad Xorazmshoh, uning o'g'li Ali ibn Ma'mun ibn Muhammad Xorazmshoh, Abu Abbas Ma'mun ibn Ma'mun ibn Muhammad Xorazmshoh kabi hukmdorlar ilm-fan, adabiyot rivojiga muhim o'rin tutdilar. Shuningdek, anushteginiylar xizmatini ham ye'tirof yetish lozim"¹⁰.

Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" asarining to'rtinchi qismiga 124 ta xurosonlik va movarounnahrlik shoirlar kiritilgan, ularning deyarli barchasi saroy ahli, hukmdor kishilar oila a'zolari, oliy tabaqa vakillari bo'lishgan¹¹. 124 shoirdan yettitasi xorazmlik shoirlar: Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy, Abu Sayyid Ahmad ibn Shabib ash-Shabibiy, Abu-l-Hasan Ma'mun ibn Muhammad ibn Ma'mun, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim at-Tojir al-Vazir, Abu Muhammad Abdulloh ibn Ibrohim ar-Raqqoshin, Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid, Abu-l-Qosim Ahmad ibn Abu Zirg'omlar ijodidan namunalar beriladi. Jumladan, Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy haqida shunday yoziladi: "Zamonasining eng donosi, adab dengizi, nasr va nazmning tug'i, fazl va idrok olamidir. Ajoyib va ibratli balog'atni o'zida mujassamlashtirgandi. Arablar tarixi, janglari va devonlari bilan chuqur tanishadi, lug'at va she'riyatga oid kitoblarini o'rganadi va har qanday bobidan va durlaridan keltira olardi, adab go'zalliklarida eng oliy darajaga erishgandi. Mushohadasining yoqimlili, iborasining malihligi, saxovatining yuksakligi, jiddiyligining mohironaligi va hazillarining halovatligi bilan har qanday yig'ilishda g'olib chiqardi. Uning risolalari devoni jildlarga ajratilib, keng tarqalgan, she'rlari devoni ham xuddi shunday"¹². Ko'rinadiki, Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiyning (vafoti 1013 y.) o'z davrida she'rlari mashhur bo'lgan va arab tilida devon tartib bergan.

Xulosa

"Devoni lug'atit turk" asari turkiy devonchilikning ilk ko'inishi deb qaraydigan bo'lsak, ushbu asarning devon deyilishiga sabab, muallif yozganidek, "...bu kitob maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezalishi"¹³ bilan birga, aynan Mahmud Koshg'ariy aslida saroy amaldorining o'g'li bo'lib, "Devoni lug'atit turk" saroy devonxonasi bilan bog'liq holda yozilgani bilan ham izohlanadi.

References:

1. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr. – T.: "Fan", 1976.
2. Atayev A. VIII-XIII asrlarda Xorazmda yaratilgan arab tilidagi adabiy manbalar tadqiqi.– T.: "Yashil yaproq nashriyoti", 2024.
3. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi qirralari. – T.: Akademnashr, 2015.
4. Umarova, S. 2023. Suyima G'anieva ilmiy-adabiy merosi: tadqiqot usullari va mezonlari. Katalog monografiy, 1(4), 3–90.

¹⁰ Atayev A. VIII-XIII asrlarda Xorazmda yaratilgan arab tilidagi adabiy manbalar tadqiqi. Monografiya. – T.: "Yashil yaproq nashriyoti", 2024. – B. 31-32.

¹¹ Qarang: Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr. – T.: "Fan", 1976.

¹² Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr. – T.: "Fan", 1976. – B.227.

¹³ Кошғарий Маҳмуд. Девони ут-турк (Туркий сўзлар девони). III томлик. I том. Таржимон ва нашрга тайёр. С.Муталлибов. – Т.: Фанлар Академияси нашриёти, 1960. – В. 44-45.